



# Bandlik va mehnat bozori

2017 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2017 yilda mehnat resurslari soni **18672,5** ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan **183,6** ming kishiga, yoki **1,0 %** ga o'sishi kuzatildi.

Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni **14357,3** ming kishini (jami mehnat resurslarining **76,9 %**), iqtisodiy nafaol aholi soni esa **4315,2** ming kishini (**23,1 %**) tashkil etdi.


Respublikada ish bilan band aholi soni **13520,3** ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga o'sdi.

## E'tibor bering:

- Respublikada ish bilan band aholi soni 2016 yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga oshdi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi **78,3 %** ni tashkil etdi.

## Mehnat resurslari sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi


(2017 yil yanvar-dekabr, ming kishi)



2017 yilda ish bilan band aholi sonining 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari tashish va saqlashda **2,6** % ni, moliyaviy va sug'urta faoliyatida **2,4** % ni, qurilishda **2,1** % ni va savdoda **1,9** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (**27,3** %), sanoat (**13,5** %), savdo (**11,0** %), qurilish (**9,5** %) va ta'lim (**8,2** %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.


### Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, foizda)



Ish bilan band aholi soni hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil etilganda, Jizzax (viloyat bo'yicha jami bandlar soniga nisbatan ulushi 41,8 %) va Sirdaryo (48,0 %) viloyatlarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi, Navoiy (26,9 %), Toshkent (19,9 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (19,1 %) sanoat sohasi, Buxoro (15,2 %) va Qashqadaryo (13,9 %) viloyatlarida qurilish sohasi hamda Toshkent shahri (68,8 %), Namangan (53,6 %), Samarqand (52,2 %) va Andijon (52,0 %) viloyatlarida xizmatlar sohasi yuqori ulushga ega ekanligi kuzatildi.

### Ish bilan band aholi sonining hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, foizda)




Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar natijalari bandlik sohasi ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topmoqda.

2017 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi **78,3 %** ni tashkil etdi.

Respublika bo'yicha jami ish bilan band aholi sonida davlat sektorida bandlar ulushi **17,3 %** ni, nodavlat sektorda esa **82,7 %** ni tashkil etdi.

### Ish bilan band aholi sonining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi (2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, foizda)



O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2017 yilda ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi soni (ishsizlar) **837,0** ming kishini, iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi esa **5,8 %** ni tashkil etdi.

O'z o'rnida, 2017 yil dekabr oyi ohirida ishsiz sifatida mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni **14,4** ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan **2,9** martaga o'sgan.



Davlat statistika qo'mitasining  
Demografiya va mehnat statistikasi  
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**B.Shodiyev**

(71) 230-80-65